

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14869421>

BAG‘RIKENGLIK – SERQIRRA VA PLYURALISTIK FENOMEN

Aytbayeva Gulchexra Yermekbayevna

Guliston davlat pedagogika institute O‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrası
dotsent vazifasini bajaruvchisi

Sultanova Indira Murotxon qizi

Ona tili va adabiyot: qozoq tili va adabiyot ta’lim yo‘nalishi
22-23-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan tolerantlik, ya’ni bag‘rikenglik haqida fikr yuritiladi. Insonlarning o‘zaro munosabatlarida zarur bo‘lgan omillar qatorida, tolerantlik yoki bag‘rikenglik kabi unsurlar o‘ta muhim ahamiyati, ijtimoiy to‘qnashuvlarning kuzga tashlanishi, qiyin vaziyatga tushgan odamlarga nisbatan mehr ko‘zi bilan qarash, ularga insoniy munosabatda bo‘lish, aynan bag‘rikenglik, tolerantlik fazilatlar bilan bog‘liqligi borasida bayon qilinadi.

***Kalit so‘zlar:** tolerantlik, barqarorlik, bag‘rikenglik plyuralistik fenomen, hamjihatlik, ijtimoiy to‘qnashuv, insoniy munosabat, tolerantlik fazilatlar, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasi, pedagogik voqelik dinamikasi, madaniyat kategoriyasi, bag‘rikenglik tamoyillari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается толерантность, то есть толерантность, которая служит основой для обеспечения социальной

стабильности. Среди факторов, необходимых в человеческом взаимодействии, такие элементы, как толерантность или толерантность, описываются как имеющие первостепенное значение, бросающие вызов социальным конфликтам, смотрящие в глаза людям, оказавшимся в трудной ситуации, относящимся к ним по человечески, именно терпимость, толерантность связаны с качествами.

Ключевые слова: толерантность, устойчивость, толерантность плюралистическое явление, сплоченность, социальный конфликт, человеческое отношение, толерантность качества, общественно-политические ценности, гражданская позиция, динамика педагогической действительности, категория культуры, принципы толерантности.

ANNOTATION

This article reflects on tolerance, which serves as the basis for ensuring social stability. Among the necessary factors in human relations, elements such as tolerance or tolerance are described in terms of their extremely important importance, the fall of social conflicts, the eye of affection for people in a difficult situation, the human attitude towards them, precisely tolerance, tolerance are associated with qualities.

Keywords: *tolerance, stability, tolerance pluralistic phenomenon, harmony, social conflict, human attitude, tolerance qualities, socio-political values, civic position, dynamics of pedagogical Reality, category of culture, principles of tolerance.*

KIRISH. Tolerantlik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, chunki bag'rikenglik serqirra, ayni paytda, plyuralistik fenomen bo'lib, o'zaro dialektik bog'liq bo'lgan juda ko'p namoyon bo'lish shakllariga ega. Toqat, sabr, tinchliksevarlik, murosa, do'stlik, hamjihatlik, ishonch, hurmat, tushunish, bilish, anglashga intilish va boshqa shu kabi axloqiy fazilatlar hamda ongli intilishlar shular jumlasidandir. Davlat va jamiyat darajalarida namoyon bo'ladigan bag'rikenglik o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishini ta'kidlash joiz. [4]

Jahon hamjamiyatining bugungi bosqich rivojlanishida, ayniqsa, globallashtirish jarayonining keskin tezlashuvi natijasida, insonlarning o'zaro munosabatlarida zarur bo'lgan omillar qatorida, tolerantlik yoki bag'rikenglik kabi unsurlar o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, xalqaro munosabatlarning yangi mazmun kasb etishi, dunyoning turli burchaklarida turli ko'rinishdagi harbiy, siyosiy, ijtimoiy to'qnashuvlarning ko'zga tashlanishi, qiyin vaziyatga tushgan odamlarga nisbatan mehr ko'zi bilan qarash, ularga insoniy munosabatda bo'lish, aynan bag'rikenglik, tolerantlik fazilatlar bilan bog'liqligi ushbu mavzuni ilmiy doiraga kiritish va unga pedagogik yondashuv masalasini ilmiy muammoga aylantirish dolzarb mavzuga aylanmoqda. [6]

NATIJALAR. Bugungi kunda, O'zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvini modernizatsiyalash jarayonlarida yoshlar siyosiy madaniyati va tolerantligini oshirishni davrning o'zi talab qilmoqda. Mamlakatimizning tarixiy istiqboli, asosan, yoshlar qatlamining qanday ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va me'yorlar, g'oyalar va an'analarni o'ziga singdirishi bilan bog'lik holda kechadi. Mamlakatda fuqarolik jamiyati rivojlanishi darajasi, eng avvalo, yoshlarning siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasi orqali aniqlanishi mumkin.

Umuman olganda, ijtimoiy institutlarning, xususan, ta'lim muassasalarining evolyutsiyasi yangi tushunchalarni ilmiy muomalaga kiritishga olib keladi. Shu bilan birga, pedagogik voqelikning dinamikasi ularni aniqlashtirishni talab qiladi. Bu, ayniqsa, xorijiy ilmiy amaliyotdan tushunchalarni olishda to'g'ri keladi. Bizning fikrimizcha, bu "bag'rikenglik" tushunchasi.

ADABIYOTLAT TAHLILI VA METODOLOGIYASI. "Tolerantlik" – faqatgina nazariy tushuncha bo'lmay, u, eng avvalo, ma'lum madaniyat va sivilizatsiyaning muhim elementi ham hisoblanadi. Agarda, madaniyat kategoriyasini biz u yoki bu jamiyatning tarixan shakllangan qadriyatlari, an'ana va normalarining yig'indisi sifatida tushunadigan bo'lsak, uning fundamental asosini tolerantlik tashkil etishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy fanlarda mazkur

fenomenlarning yig'indisidan tashkil topgan birqancha ilmiy qarashlar mavjud. Shulardan biri kosmosentrik (yoki umuminsoniy) madaniyatdir.

Dunyodagi barcha xalqlar turli mentalitetga ega va mazkur mentalitet qaysidir mamlakatda erkin qabul qilinsa, boshqasida tazyiqqa uchrashi mumkin. Bunday hollarda tolarentlik tushunchasi hamda inson tolarentligining o'rni beqiyosdir.

Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan bag'rikenglik borasida 1995-yil 16-noyabrda BMT tizimida fan, ta'lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YUNESKO) bosh konferensiyasining 28-sessiyasida "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi" qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat'i nazar bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo'yilgan.

"Tolerantlik prinsiplari deklaratsiyasi"da: "tolerantlik – bo'sh kelish, ko'ngil bo'shlik yoki nojo'ya harakatlarga befarqlik emas. Tolerantlik universal huquq va insonning asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllanadigan faol munosabatdir. Hech bir holatda tolerantlik ushbu asosiy qadriyatlarga bo'lgan tajovuzni oqlashga xizmat qilishi mumkin emas; tolerantlikni ayrim kishilar, guruhlar va davlatlar ham ko'rsatishi zarur". [5] Tolerantlik g'oyasining paydo bo'lishi, moslashuvi, o'zgarishi falsafiy fikrlashning yetarli darajada rivojlanganligi, diniy axloqning yuzaga kelishi bog'liq. Mazkur tushunchaning paydo bo'lishiga qo'shniga bo'lgan iliqlik, yovuzlikka zo'ravonlik bilan qarshi kurashmaslik haqidagi ta'limotlar, bundan tashqari, tarixiy, madaniy, siyosiy omillar sabab bo'lgan.

MUHOKAMA. Ma'lumki, O'zbekiston ko'pmillatli, ko'pdinli, turfa xil madaniyatli mamlakat disoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot an'anaviy madaniyatni zamonaviy belgilar, yangi an'analar bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Madaniyatlardagi innovatsiyalar umumiy ijtimoiy-madaniy makondagi madaniy plyuralizm an'analariga mos kelishi, ushbu an'analarni inkor etish emas, balki ularni mohiyatan va shaklan boyitish yo'lidan borishi darkor. An'anaviy madaniyat konservativ xarakterga ega. Aynan shu belgi madaniyatning milliyligini ta'minlaydi. Tolerantlik madaniyati an'anaviy madaniyatdagi ushbu kadriyatlarga tayanishi zarur.

Tolerantlikning mazmun-mohiyati, uning turli davrlar va ijtimoiy-siyosiy sharoitlardagi faoliyatiga doir nazariy qarashlar tahlilini umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash lozimki, tolerantlik o'zgalarning urf-odati, hayot tarzi, qadriyat va dunyoqarashiga nisbatan bag'rikeng munosabatda bo'lish, aqidaparastlikdan, yagona fikrni mutloqlashtirishdan voz kechishni anglatadigan va inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro huquq tamoyillariga asoslanadigan siyosiy fenomendir. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqga boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng huquqiy-demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati va iqtisodiy erkinliklarga asoslangan bozor iqtisodiyoti qu'rilishi jarayonida siyosiy tolerantlik madaniyati dolzarbligini alohida e'tirof etishimiz joiz. Siyosiy madaniyat va tolerantlik mavzusiga bo'lgan e'tiborning kuchayishiga qaratilgan ichki va tashqi sharoitlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, diniy va dunyoviy bag'rikenglik madaniyati bugungi globallashuv jarayonida har bir millat, jamiyat, ayniqsa, yoshlarning siyosiy pozitsiyasini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, yoshlarimizda tolerantlik madaniyatini tobora shakllantirib borish bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Bu jarayonda esa mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy munosabatlar tizimini doimiy ravishda monitoring kilib borish; ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ijtimoiy foydali ishlarga jalb qilish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shaxsiy va professional rivojlanishi uchun ko'mak beradigan turli ijtimoiy-psixologik, huquqiy, axborot va konsultativ xizmatlar ko'rsatish; turli funksiyalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy xizmatlar markazlarini shakllantirish va O'zbekiston yoshlariga XXI asrga xos bo'lgan yangi innovatsion bilimlar berish zarur. [3]

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bag'rikenglik serqirra, ayni paytda plyuralistik fenomen bo'lib, o'zaro dialektik bog'liq bo'lgan juda ko'p namoyon bo'lish shakllariga ega. Shuning uchun ham tolerantlik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, demokratik davlatda irqi, millati, dini, tili, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa farqlovchi belgilaridan qat'i nazar barcha fuqarolar uchun

qonun asosida teng huquq, majburiyat va imkoniyatlar huquqiy kafolatlanadi. Bundan tashqari davlatning bag‘rikeng munosabati har bir inson va ijtimoiy guruhning iqtisodiy farovonligi va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, millat va din vakillariga nisbatan toqatsizlik, hurmatsizliklarning oldini olishga qaratilgan tizimli ishlarni muntazam ravishda olib borishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tolerantlik madaniyatini shakllantirish murakkab jarayon sanalib, uning natijadorlik samarasi turli hududlarda har xil ko‘rsatgichga ega bo‘lishi mumkin. Ammo, umumiy natija, o‘quvchi yoshlarni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalab, ularning ongiga Vatan, Yurt degan makonda umrguzaronlik qiladigan barcha millat va elatlarga nisbatan vatandosh, yurtdosh kabi tushunchalarni samimiy qo‘llashni singdirish lozim. Buning uchun, pedagoglarning kundalik faoliyatida tolerantlik bilan bog‘liq muomala munosabatlarni jiddiy ko‘zatish va ularga hayotiy mazmun bag‘ishlash keng o‘rin olishi taqozo etiladi.

XULOSA. Demak, mamlakatimizda ma‘rifat asoslarini yanada mustahkamlash, diniy bag‘rikenglik an‘analarini barqaror davom ettirish bilan bog‘liq masalalarga bunday o‘ziga xos differensial yondashuv, shubhasiz, mamlakatimizda asriy an‘analarga ega bo‘lgan bag‘rikenglik muhitini rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Xalqimiz ongida ming yilliklar mobaynida shakllangan bag‘rikenglik hamda yuksak ilm-u ma‘rifat an‘analari bugungi kunda konfessiyalararo sog‘lom muloqotni barqarorlashtirish, diniylik va dunyoviylik muvozanatini ta‘minlashga mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ewa A. Golebiowska. The mechanisms behind the relationship between education and political tolerance // *Politics, Groups and Identities*. – 2020. – Vol.8 – Issue 5. Investigating Political Tolerance at Conservative Protestant Colleges and Universities: By George Yancey.
2. Florian Justwan & Sarah K. F. Territorial claims, territorial attachment, and political tolerance: evidence from India // *Politics, Groups and Identities*. – 2021. – Vol.9. – Issue 1.
3. Агабаев Ш. Ёшлар сиёсий толерантлигини шакллантириш жамият барқарорлигининг муҳим омили сифатида. Фуқдролик жамиятининг маънавий-маърифий асослари. 2021b №1(65) 33-35 беттер
4. Саифназаров И.С. Толерантлик – Ўзбекистон миллий демократик давлатчилиқ тараққиётининг асосий шarti. [https://tsue.uz/media/section_file/ 1.pdf](https://tsue.uz/media/section_file/1.pdf).
5. Халилов Э.Х. Высший законодательный орган Республики Узбекистана. – Т.: Узбекистан, 2001.
6. Ҳамроев Ш.Ш.. Ўқувчи-ёшларда толерантлик маданиятини шакллантиришнинг педагогик жиҳатлари таълим муассасасидаги тарбия. Doi: 10.34920/So/Vol_2022_Issue_7_2 47-51 бет